Ergashev Uyg'un Jabborovich	
Obligatsiya moliya bozori instrumenti sifatida, milliy obligatsiyalar bozori	916
Avezov Ibrohim Ilxomovich, Yaxshiboyev Jahongir Abdalimovich	
Barqaror rivojlanish doirasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlarining yashil texnologiyalar innovatsiyasiga ta'sirini baholash.....	921
Meliqo'zieva Dilrabo Muxitdin qizi	
Yashil iqtisodiyot – barqaror taraqqiyotga olib boruvchi yo'l.....	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
Научно-теоретические основы экономической и эколого-экономической эффективности предприятий горнодобывающей промышленности.....	930
Раматов Зафарбек Жуманиязович	
Xitoyda eksport faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	938
D.E.Qarshiev	
Kichik sanoat zonalarida investitsion jozibadorlikni oshirishni investitsion faollikka ta'siri.....	943
Mannapova Shaxnoza Elshodovna	
Mahalla institutining samaradorligi tahlili: so'rovnoma yondashuvi	947
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Формирование человеческого капитала в условиях демографических изменений: опыт и перспективы для узбекистана.....	955
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
Farmasevtika kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish yo'nalishlari	962
Baxrombek Bobojonov	
“Hududlarda sug'urtaga bo'lgan talabning ekonometrik tahlili”	967
Bekberganova Mohira Ravshonbekovna	
O'zbekiston va xalqaro amaliyotda raqamli marketing vositalaridan foydalanish: muammolar va yechimlar	973
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	
Условия эксплуатации и экологическая безопасность автотранспортной системы на основе энергосберегающих технологий	978
Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
O'zbekiston tibbiyot muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanishda xorijiy tajribalarni qo'llash.....	982
Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich	



Buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish yo'llarida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar	987
Sattorov Mirjahon	
Особенности маркетинговых стратегий в условиях ограниченных ресурсов и узкой потребительской аудитории	991
Дебердиев Анвар	
DEbitorlik va kreditorlik qarzlarini auditini rejalashtirish masalalari.....	995
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Ibragimova Iroda Rashid qizi	
Инвестиционная программа узбекистана по привлечению иностранных инвестиций	1000
Камилова Наргиза Абдукахоровна, Бекмуратов Шухрат Даулетмуратович	
Turistik mahsulotni shakllantirishda turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash.....	1005
Raxmonov Siyovush Turob o'g'li	
Uglerodsiz energiyaga o'tishda o'zbekistonning yashil strategiya yo'l xaritasining integratsiyasi va ta'siri.....	1011
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Цифровая устойчивость регионов: применение аналитики больших данных для оценки и управления экологическими рисками	1016
Маликов Шохрух Шокирович, Камалов Шухрат Камалович	
Разработка риск-ориентированной модели внутреннего контроля предприятия на этапе планирования налогов в условиях дистанционного налогового мониторинга	1024
Галеева Н.Н., Э.А.Халикова, Абдусаломова Гулчеҳра Мирзо кизи	
Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца	1029
Мухаммадиева Лола Атамурадовна	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	1036
Uskenbaeva Dilnoza Boxodir qizi	
Факторы повышения эффективности управления в государственном секторе.....	1043
Махмудова Севара Улугбековна	
Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati	1048
Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxona darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi	1063
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов	1070
Гулираъно Носирова Абдулазиз кизи	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati	1073
Bobaev Isroiljon Abdinabievich	
Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции	1078
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlar hamda tendensiyalari.....	1083
Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
Nazarov Qilich Xolmuradovich	
Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan	1092
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
Qosimova Nodira Saidovna	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar.....	1102
Azizova Maliha Farrux qizi	



Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана	1106
Максудова Шахзода	
Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий	1112
Олимова Бахора Шухратовна	
Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri.....	1116
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning ta'siri	1121
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li	



IQTISODIY O'SISHNING MAKROIQTISODIY FAKTORLARI VA ULARNING TA'SIRI



Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li

International School of Finance Technology and Science Instituti
Magistratura bo'limi yetakchi mutaxassisi, Menejment kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy omillari va ularning davlat rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan asosiy omillar – investitsiyalar, mehnat resurslari, texnologik innovatsiyalar, tashqi savdo va ijtimoiy rivojlanish – o'zaro aloqadorlikda tahlil qilingan. Har bir omilning iqtisodiy o'sishga ta'siri, ularning integratsiyasi davlat taraqqiyotini qanday tezlashtirishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy o'sishdagi roli va uning samarali amalga oshirilishi yuzasidan amaliy tavsiyalar berilgan. O'zbekiston iqtisodiy o'sishining o'ziga xos jihatlari ham tadqiqot doirasida yoritilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy omillar, investitsiyalar, texnologik innovatsiyalar, mehnat resurslari, tashqi savdo, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiy siyosat, barqaror rivojlanish.

Abstract: This research explores the macroeconomic determinants of economic growth and their impact on state development. The study examines key macroeconomic factors—investments, labor resources, technological innovations, external trade, and social development—and analyzes how their interrelation influences sustainable economic growth. The role and effective implementation of macroeconomic policy are emphasized. The study also addresses the specific characteristics of Uzbekistan's economic growth and proposes practical recommendations for improving macroeconomic strategies.

Key words: economic growth, macroeconomic factors, investments, technological innovations, labor resources, external trade, social development, economic policy, sustainable development.

Аннотация: В данном исследовании рассматриваются макроэкономические факторы экономического роста и их влияние на развитие государства. Проанализированы ключевые макроэкономические детерминанты – инвестиции, трудовые ресурсы, технологические инновации, внешняя торговля и социальное развитие – и их взаимосвязь в обеспечении устойчивого роста. Отдельное внимание уделено роли макроэкономической политики и эффективности её реализации. Также рассмотрены особенности экономического роста Узбекистана и представлены практические рекомендации по совершенствованию экономической стратегии.

Ключевые слова: экономический рост, макроэкономические факторы, инвестиции, технологические инновации, трудовые ресурсы, внешняя торговля, социальное развитие, экономическая политика, устойчивое развитие.

KIRISH

Iqtisodiy o'sish har bir mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishning o'zni va ahamiyati, ayniqsa, iqtisodiy barqarorlikni saqlash, aholining turmush darajasini oshirish va xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun esa iqtisodiy o'sish yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning ustuvor omili sifatida namoyon bo'ladi.



Iqtisodiy o'sishning barqaror va tez sur'atlarda rivojlanishi ko'plab makroiqtisodiy omillar bilan belgilanadi. Ular qatoriga investitsiyalar, mehnat resurslari, texnologik innovatsiyalar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tashqi savdo va global iqtisodiy o'zgarishlar kiradi. Har bir mamlakat ushbu omillarni iqtisodiy strategiyasiga integratsiyalash orqali milliy rivojlanishni ta'minlashga intiladi. Shu bilan birga, pul-kredit siyosati, fiskal siyosat va soliq siyosati kabi makroiqtisodiy mexanizmlar ham iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – iqtisodiy o'sishning yetakchi makroiqtisodiy omillarini aniqlash hamda ularning davlat rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilishdan iboratdir. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning ijtimoiy va ekologik jihatlarini hisobga olgan holda, makroiqtisodiy omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlash va mamlakat taraqqiyotining samarali yo'llarini aniqlab berish ham ushbu tadqiqot doirasiga kiradi. Tadqiqotda iqtisodiy o'sishning texnologik, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan bog'liqligi, shuningdek, ular o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy omillarini chuqur tahlil qilish;

har bir omilning iqtisodiy o'sishga bo'lgan ta'sirini baholash;

iqtisodiy o'sishning ijtimoiy va ekologik barqarorlikdagi rolini o'rganish;

iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish va tezlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy omillari bo'yicha adabiyotlar tahlili ushbu sohadagi nazariy asoslar va amaliy tajribalarni chuqur o'rganishga imkon beradi. R. Solowning (1956) neoklassik o'sish modelida kapital, mehnat va texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishga ta'siri asoslangan. Bu yondashuv iqtisodiy o'sishni faqat tashqi omillar orqali emas, balki texnologik rivojlanish orqali ham rag'batlantirish mumkinligini ko'rsatadi. Barro va Sala-i-Martinning (2003) "Economic Growth" asari iqtisodiy o'sish nazariyalarini, investitsiyalar va inson kapitalining rolini keng qamrovda tahlil qiladi. Ayniqsa, makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati batafsil yoritilgan. Mankiw, Romer va Weilning (1992) tadqiqotlarida esa inson kapitali va texnologik yangiliklar o'sishning muhim omili sifatida ko'rsatilgan. ucas (1988) o'zining endogen o'sish modeli orqali mehnat mahsuldorligi va ta'limning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini ko'rsatib berdi. Bu yondashuv siyosiy barqarorlik va ta'limga investitsiya qilishning dolzarbligini isbotlaydi. Aghion va Howitt (2009) esa innovatsiyalar va texnologik yuksalishlar asosida iqtisodiy o'sishni doimiy saqlash mumkinligini asoslab bergan. Todaro va Smit (2015) tomonidan yozilgan "Economic Development" nomli asarda rivojlanayotgan mamlakatlar misolida iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va institutsional omillar, shuningdek, mehnat bozori va savdo siyosati yoritilgan. O'zbekiston bo'yicha olingan manbalarda esa, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining (2023) yillik hisobotida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasi, xususan YIM o'sishi, inflyatsiya darajasi, investitsion faoliyat va tashqi savdo balansi tahlil qilingan. Xalqaro manbalar, masalan Jahon Banki (2024) va Xalqaro valyuta jamg'armasi (2023) hisobotlarida global iqtisodiy muhit va mintaqaviy makroiqtisodiy tendensiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, Ergashev A. (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekistonda iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari va ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri chuqur yoritilgan.

Ushbu adabiyotlar tahlili iqtisodiy o'sishni ta'minlashda makroiqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligi va ularning siyosiy, institutsional, texnologik muhit bilan integratsiyasining dolzarbligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy omillari va ularning davlat rivojlanishiga ta'sirini o'rganish uchun bir qator zamonaviy ilmiy metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy e'tibor tizimli yondashuv, empirik tahlil, solishtirma tahlil va statistik metodlarga qaratildi. Ushbu metodlar iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni chuqur tahlil qilish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.

Birinchi metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu yondashuv yordamida iqtisodiy o'sishning asosiy makroiqtisodiy komponentlari – investitsiyalar, mehnat resurslari, texnologik yangilanish, tashqi savdo va moliyaviy siyosat – bir butun tizimda o'rganildi. Tizimli tahlil orqali, shuningdek, iqtisodiy o'sishning texnologik, ijtimoiy va ekologik jihatlarini hamda ularning o'zaro aloqalari tahlil qilindi.

Ikkinchi metod sifatida empirik tahlildan foydalanildi. Bu metod yordamida O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy omillar bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Amaliy ma'lumotlarga asoslangan holda, iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarning real natijalari aniqlab berildi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish indikatorlari (masalan, YalIM, inflyatsiya darajasi, savdo balanslari) ko'rib chiqildi. Uchinchi metod sifatida solishtirma tahlil metodologiyasi qo'llanildi. Bu yondashuv yordamida



rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish jarayonlari taqqoslandi. Solishtirish orqali O'zbekiston iqtisodiy siyosatini boshqa davlatlar tajribasi asosida tahlil qilish va moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratildi. Tadqiqotda, shuningdek, statistik tahlil usuli ham qo'llanildi. Statistik yondashuv yordamida makroiqtisodiy omillar ta'sirining sonli ko'rsatkichlari aniqlanib, iqtisodiy o'sish jarayonining asosiy jihatlari kvantitativ tarzda yoritildi. Bunda turli davrlar uchun statistik ma'lumotlar jamlanib, o'zgarish dinamikasi hamda prognoz modellar tuzildi. Yana bir muhim yondashuv sifatida prognozlash metodologiyasi qo'llandi. Ushbu usul yordamida iqtisodiy o'sishning istiqbollari, uning makroiqtisodiy omillar bilan bog'liqligi va uzoq muddatli natijalari taxmin qilindi. Bu yondashuv siyosiy qarorlar qabul qilishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanildi. Umuman olganda, tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar iqtisodiy o'sishning asosiy makroiqtisodiy omillarini aniqlash, ularning o'zaro ta'sirini baholash va davlat siyosatini strategik jihatdan shakllantirishda ilmiy asoslangan xulosalarga kelishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning davlat rivojlanishiga ta'siri bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning barcha asosiy omillari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning samarali integratsiyasi mamlakatning umumiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi navbatda, investitsiyalar iqtisodiy o'sishning eng muhim omillaridan biri sifatida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari, investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy o'sishga ta'siri sezilarli ekanligini ko'rsatadi. Asosan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) va ichki investitsiyalar, iqtisodiy tizimning rivojlanishini tezlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda asosiy omil hisoblanadi. Investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy sektorlar diversifikatsiyasiga yordam beradi. O'zbekistonda xususan, sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalar o'sishni rag'batlantiradi, bu esa davlatning global bozorga integratsiyasini kuchaytiradi.

1-jadval. 2022–2024 yillarda iqtisodiy o'sishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024
Investitsiyalar hajmi (trln so'm)	145,0	160,0	173,0
Mehnat resurslari soni (mln kishi)	14,8	15,1	15,5
Patentlar soni (yangi innovatsiyalar)	420	470	510
Eksport hajmi (mlrd AQSh dollari)	18,2	20,4	22,3
Ijtimoiy xarajatlar (trln so'm)	67,0	74,0	80,0

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2022–2024 yillar oralig'ida investitsiyalar, mehnat resurslari, innovatsion faoliyat (patentlar soni), eksport hajmi va ijtimoiy xarajatlarda barqaror o'sish kuzatilgan. Bu esa iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlar orqali bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Mehnat resurslari va inson kapitali ham iqtisodiy o'sishda muhim omil sifatida o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim va malakali ishchi kuchining rivojlanishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarida mehnat bozorining optimallasuvi va malakali ishchi kuchining mavjudligi zarur. O'zbekistonning ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va yosh avlodni malakali ishchi kuchi sifatida tayyorlash iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Texnologik innovatsiyalar va yaratuvchanlik iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadigan boshqa muhim omil sifatida alohida ko'rib chiqildi. Innovatsiyalarni joriy etish orqali, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi. Yangi texnologiyalarni tatbiq etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va energiya samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Tashqi savdo ham iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida ajralib turadi. Tadqiqotda tashqi savdoning, xususan, eksportning o'sishidagi rolini ta'kidlash mumkin. Tashqi iqtisodiy aloqalar va eksportni kengaytirish, mamlakatning raqobatbardoshligini oshiradi va iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi. O'zbekistonda eksportning xilma-xilligi va yangi bozorlarni ochish, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy rivojlanish ham iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadigan muhim omil sifatida tadqiqotda ko'rsatilgan. Daromad taqsimoti, ta'lim tizimi va sog'liqni saqlash kabi sohalarda investitsiyalarni ko'paytirish, ijtimoiy barqarorlikni oshirishga yordam beradi. Iqtisodiy o'sishning ijtimoiy jihatlari, ayniqsa, tengsizlikni kamaytirish va jamiyatdagi farovonlikni oshirishga qaratilgan.

Shuningdek, makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy o'sishdagi roli alohida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat siyosati, xususan, fiskal va pul-kredit siyosatining muvofiqligi, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda



muhim ahamiyatga ega. O'zbekistondagi iqtisodiy siyosatni optimallashtirish, xususi sektorni rag'batlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi.

Global iqtisodiy integratsiya ham iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida e'tiborga olinadi. Xalqaro bozorlarga kirish, yangi bozorlar va investitsiyalarni jalb qilish, davlatlarning iqtisodiy o'sishini yanada rivojlantiradi. Global iqtisodiy integratsiya va mamlakatlararo aloqalar O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Natijada, iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlarining o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini chuqur o'rganish, davlat rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashga imkon berdi. Iqtisodiy o'sishning barcha asosiy omillari o'rtasidagi muvozanatni saqlash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va rivojlanishni tezlashtirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning davlat rivojlanishiga ta'siri chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning barcha asosiy omillari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning samarali integratsiyasi mamlakatning umumiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sishning eng muhim omillari sifatida investitsiyalar, mehnat resurslari va inson kapitali, texnologik innovatsiyalar, tashqi savdo va ijtimoiy rivojlanish kabi faktorlar ajralib turadi.

Investitsiyalar va texnologik innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy motorlaridan biri sifatida iqtisodiyotning zamonaviylashuviga olib keladi. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ichki investitsiyalar mamlakatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, yangi ish o'rinlarini ochish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Mehnat resurslari va inson kapitali ham iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida o'rganildi. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarida malakali ishchi kuchi, ta'lim va malaka oshirishning muhimligi ko'rsatildi.

Tashqi savdo va global iqtisodiy integratsiya davlatning raqobatbardoshligini oshirishga, yangi bozorlarni ochishga va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, eksport va importning o'sishi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Makroiqtisodiy siyosat, ayniqsa, fiskal va pul-kredit siyosatining samarali amalga oshirilishi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga va barqarorlashtirishga yordam beradi.

Ijtimoiy rivojlanish va iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi ham tadqiqotda alohida ta'kidlandi. Iqtisodiy o'sish darajasining oshishi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, ammo daromad taqsimoti va ijtimoiy tenglik masalalariga ham e'tibor qaratish zarur. Iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun davlat siyosatining muvofiqligi va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning natijalari iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi va davlat rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rsatdi. Iqtisodiy o'sishning barqarorligi va tezlashishi uchun investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni rivojlantirish, tashqi savdoni kengaytirish va samarali makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish zarur. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish uchun xalqaro tajribalardan foydalanish va davlat siyosatini zamonaviy yondashuvlar asosida yangilash muhimdir.

Shu bilan birga, tadqiqotda iqtisodiy o'sishning ijtimoiy va ekologik jihatlarini ham hisobga olish zarurligi ta'kidlandi. Davlat siyosatining barcha omillarni hisobga olgan holda shakllanishi iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sachs, J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. Columbia University Press.
2. Stiglitz, J. E. (2002). Globalization and its Discontents. W.W. Norton & Company.
3. Aghion, P., and Howitt, P. (1992). A Model of Growth through Creative Destruction. *Econometrica*, 60(2), pp. 323-351.
4. Barro, R. J., and Sala-i-Martin, X. (1995). *Economic Growth*. McGraw-Hill.
5. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *The Quarterly Journal of Economics*, 70(1), pp. 65-94.
6. Jackson, T. (2009). *Prosperity Without Growth: Economics for a Finite Planet*. Earthscan.
7. Romer, P. M. (1990). Endogenous Technological Change. *Journal of Political Economy*, 98(5), pp. S71-S102.
8. OECD (2011). *Towards Green Growth*. OECD Publishing.
9. Stern, N. (2006). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge University Press.
10. United Nations (2012). *The Future We Want: Outcome Document of the United Nations Conference on Sustainable Development (Rio+20)*. United Nations.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
